
Navbatdagi qabul Qirguli mavzeida o'tkazildi

Bugun shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisi Ulug'bek Oripov va ma'muriy ishlar bo'yicha sud raisi Solijon Qurbonov, majburiy ijro byurosi vakillari hamda hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

Qirguli mavzeidagi 2-sonli bolalar musiqa va san'at maktabining faollar zalida 80 nafarga yaqin murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirma nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida o'tgan hafta davomida tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:33:02